

This is not registered version of TotalDocConverter

Augustning boshlarida "Dut-dut" nomli jamoa qiziqishga chaqirib, qo'limga qandaydir xatni tutqazdi-da, shu yerning o'zidayoq tanishib chiqishimni iltimos qildi.

"Hurmatli olimlar! ЁЎ“ deb boshlangan edi xat. ЁЎ“ Sizlarning ilmiy tekshirish institutingizda asabiy zarbaning insonga jismoniy tasirini o'rganish ustida tajriba olib borilayotganini gazetadan o'qigan edik. Bizga bir masalada yordam berishingizni o'tinib so'raydurmiz. Yani, masalan, bir nobop odamni ishdan haydadik deylik. Ana shu jazo jismoniy tomondan unga nechchi kilo vazminlikda tasir qilishi mumkin?

ЁЎ“ Hatto qishloqdagilar ishimiz bilan qiziqishayotgani juda quvonarli, ЁЎ“ dedi direktorimiz, shishadan yasalgan o'ng ko'zida ham mamnunlik porpirab. ЁЎ“ Bunaqa xatlar bizni benaflikda ayblab kelayotgan ayrim taqsirchalarning oldida yuzimizni yorug' qiladi. Kerakli tajribalarni o'tkazib, bu xatga aniq javob yozib jo'natishni shaxsan sizga topshiraman.

Bir oylik izlanishlardan so'ng, nihoyat qat'iy xulosaga kelib, "Janjalkapa jamoa xo'jaligi raisi nomiga maktub yubordim: "O'rtoq rais! Kishini ishdan haydash ЁЎ“ unga o'rta hisobda yetmish besh kilogramm yuk ko'tartirish bilan barobardir. Lekin, shuni eslatib o'tmoq joizki, yukning mazkur miqdori o'sha shaxsning yoshi, jismoniy ahvoli, asabining bo'sh yoki qattiqligiga qarab, ko'proq yo'inki ozroq tomonga o'zgarishi mumkin.

"Janjalkapa jamoa xo'jaligi raisidan 16 sentyabrda yana xat oldik: "Qirq uch yoshgacha o'lmasdan yetib kelgan, bo'yi chorak kam ikki metr, og'irligi besh yarim pudlik surbet odamga "Hayfsan bersak, unga qancha yuk bosgan bo'lamiz?

O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, oddiygina "Hayfsan yuqorida tasvirlab berilgan nusxadagi kishilarni 30ЁЎ“35 kilogramm og'irlikda ezar ekan. Jamoa xo'jaligiga shuni yozib jo'natdim.

Nomi endilikda idoramizdagilarning barchasiga yod bo'lib qolgan "Janjalkapadan 2 oktyabr kuni uchinchi xat keldi. Unda "Ogohlantirishning ahvol-turxati oldingi safar qayd etib o'tilgan shaxsga nisbatan jismoniy tasiri borasida malumot berishimiz so'ralgan edi.

Boshqatdan tajribalar o'tkazishga to'g'ri keldi. Shunchaki "Ogohlantirish degan narsa kishini 15 kilogramm yukni ko'tarib yurishga majburlashi malum bo'ldi-yu, bundan o'zim ham hayratga tushdim. Hisoblab ko'rsam, ishga kelganimga hali ikki yil bo'lmay turib, olti marta "Ogohlantirish olibman. Bir o'zimga 165 kilogramm jazo berishibdi-ya! Ikkita eshakning yuki-ku bu!

"Janjalkapaga navbatdagi maktubni jo'natish bilan birga, berilayotgan malumotlar uchun muassasamizga to'lanadigan pulni bankdagi hisob raqamimizga tezroq o'tkazish lozimligini ham eslatib qo'ydim.

Noyabrning beshinchi kunida xo'jalik raisi shaharlararo telefon orqali menga qo'ng'iroq qildi. Arang-marang salomlashuvdan so'ng, jadal maqsadga o'tdi:

ЁЎ“ Xo'sh, bilvolaylik-chi, akasi, ЁЎ“ deya eshitqini zirillatdi u. ЁЎ“ Qirq uch yoshli surbet odamga majlisda qattiq po'pisa qilsam, gardaniga qancha yuk ortgan bo'laman?

ЁЎ“ Aniq aytish uchun, oldin tajriba o'tkazish kerak, ЁЎ“ dedim men. ЁЎ“ Agar, taxminan oladigan bo'lsak, yetti-sakkiz kilodan kam chiqmas-ov.

ЁЎ“ Bu qanaqasi! ЁЎ“ po'ng'illab zardalandi rais. ЁЎ“ Bir badbaxt katta ish ko'rsatib tursa-yu, sizlarga qolsa, unga po'pisayam qilolmas ekanman-da? Bunaqada, xo'jalikda tartib o'rnatib bo'ladimi?!

ЁЎ“ Tushunmadim

ЁЎ“ Nimasini tushunmaysan, akasi? Omborchimiz jamoa xo'jaligimizga tegishli g'allani "tuya qilmoqchi bo'pturganda, qo'lga tushdi. Unga, loaqal tuzukroq do'q urolmasak, bu yerda nima qilib o'tiribmiz? Xo'sh?!

ЁЎ“ G'allangizni kimdir o'marsa, menga nima? ЁЎ“ deya men ham ovozimni balandlatdim.

Rais eshitqini battardan zirillatdi:

ЁЎ“ Bitta po'pisani sakkiz kiloga chiqarib qo'yib, tag'in "menga nima deysan-a! Omborchimiz yozda sariq kasali bilan og'rigan.

Qoida bo'yicha, bunaqa kasallar bir yilgacha to'rt kilodan ortiq yuk ko'tarmasligi kerak ekan. U surbet "shunga rioya qilinglar, deb turibdi. Kallang zo'r bo'lsa, ayt-chi, to'rt kilolik yarimta do'qni unga qayoqdan topay endi? He, o'sha sandaqa paylasuflarni Eshitqidan "dut-dut degan tovush tarala boshladi. Qishloq bilan ilg'or fan o'rtasida tiklanayotgan aloqa yana to'satdan uzilib qoldi